



2019 yilda Samarqand viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar soni 68 tani tashkil qilib, ular tomonidan 52872 nafar tashrif buyuruvchiga xizmat ko'rsatildi.

Tashrif buyuruvchilarning 31365 nafari xorij fuqarolari shundan 833 nafari MDH davlatlari fuqarolari va 21507 nafarini O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini tashkil qilgan. Shuningdek turistik firma va tashkilotlar tomonidan O'zbekistondan jo'natilgan shaxslar 2910 nafarni tashkil qildi. Shundan xorijiy mamlakatlarga 596 nafar ulardan MDH mamlakatlariga 354 nafar kishi, qolgan 2314 nafar fuqarolar O'zbekiston Respublikasi bo'ylab safarlarni amalga oshirishgan.

2019 yilda Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni, (kishi)



O'zbekiston Respublikasi fuqarolari - 21507




MDH davlatlari fuqarolari - 833



Xorij fuqarolari - 31365

2019 yilda Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilarning MDH, xorijiy va O'zbekiston fuqarolari ulushi, foizda




2019 yilda Samarqand viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan 26518 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan bo'lib, ularning qiymati 152283,1 mln.so'mni tashkil qildi.

2019 yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni va qiymati


	Soni, birlikda	Qiymati, mln. so'm
Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari jami	26 518	152 283,1
Ulardan bevosita aholiga	20 329	151 941,2
<i>shu jumladan:</i>		
O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	2 582	2 842,8
Chet el mamlakatlari bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	301	366,5
O'zbekiston hududi bo'yicha MDH fuqarolariga	1 383	5 966,2
O'zbekiston hududi bo'yicha boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga	16 063	142 765,7

2019 yilda sotilgan 20329 ta sayyohlik yo'llanmalarining barchasi aholi tomonidan sotib olingan.

2019 yilda Samarqand viloyatida jamoaviy joylashtirish vositalari



2019- yilda mehmonxonalarining toifasi bo'yicha ulushi, (foizda)%



Viloyatimizda 2019 - yilda 125 ta mehmonxona mavjud bo'lib, 1 yulduzli mehmonxonalar 28 ta, 2 yulduzli mehmonxonalar 3 ta, 3 yulduzli mehmonxonalar 12 ta, 4 yulduzli mehmonxonalar 4 ta, toifaga ega bo'lmagan mehmonxonalar 78 tani tashkil etgan.

■ 1 yulduzli ■ 2 yulduzli ■ 3 yulduzli
■ 4 yulduzli ■ toifaga ega bo'lmagan

2019- yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning safar maqsadlari, kishi.

	O'zbekiston fuqarolari	MDH fuqarolari	Xorij fuqarolari
ta'til, bo'sh vaqt va dam olish	29506	28014	110749
do'stlar va qarindoshlardan xabar olish	1511	732	419
ta'lim va kasbiy tayyorgarlik	529	8	41
davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar	587	449	157
tranzit	76	13	84
ziyosat qilish	16489	5524	8024
boshqa shaxsiy maqsadlar	13480	2482	5521
ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar	23641	4676	15655

2019 yilda jamoaviy joylashtirish vositalari soni 205 tani tashkil qilib, shundan 139 tasi mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari bo'lib, 125 ta mehmonxona, 14 ta qisqa muddat yashashga mo'ljallangan joylar, 39 ta ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari, 18 ta individual joylashtirish vositalari qolgan 9 tasi xostel va shunga o'xshash umumiy yotoqxonalaridir.

Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida 2859 nomer, 5800 joylar mavjud. Ularda joylashtirilgan shaxslar 268367 nafarni tashkil etdi. Joylashtirilgan shaxslarning 85819 nafari O'zbekiston fuqarolari, 41898 nafar MDH fuqarolari, 140650 nafari esa xorijiy davlatlar fuqarolarini tashkil etadi.

Ma'lumot uchun:

***Turizm** (fransuzcha) our — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushunilad.*

Ma'lumot uchun:

***Kiruvchi turizm**, ko'rilayotgan mamlakat doimiy yashovchisi bo'lmagan tashrif buyuruvchining kiruvchi sayyohlik safari vaqtidagi ushbu mamlakat doirasidagi faoliyatini o'z ichiga oladi.*

***Chiquvchi turizm**, ko'rilayotgan mamlakat doimiy yashovchisi bo'lmagan tashrif buyuruvchining ushbu mamlakat doirasidan tashqaridagi chiquvchi yoki sayyohlik safariga doir faoliyatini o'z ichiga oladi.*